

XAMSHIRALIK ISHINING TARIXI VA TARAQQIYOTI

Xolmatova Laziza Otamurodovna

Rentgen endovaskulyar jarroxlik 10-kardiologiya bo'limi
oliy ma'lumotli katta hamshirasi

Respublika Ixtisoslashtirilgan Kardiologiya Ilmiy Amaliy Tadqiqot Markazi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hamshiralik faoliyati qonuniyatlari hamda “Hamshiralik Falsafasi” tushunchasi borasida ma'lumot berilgan. Tibbiyotning paydo bo'lishi, hamshiralik ishining rivojlanish tarixi va taraqqiyoti hamda

Hamshiralik jarayoni borasida tushunchalar keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: Hamshiralik falsafasi, hamshiralik ishi, meditsina, salomatlik, Xalqaro hamshiralar assotsiatsiyasi (XHA).

Аннотация: В данной статье представлена информация о принципах медсестринской деятельности и понятии «Философия медсестринского дела». Возникновение медицины, история и развитие медсестринского дела и Широко освещены понятия медсестринского процесса.

Ключевые слова: Философия сестринского дела, медсестринская работа, медицина, здоровье, Международная ассоциация медсестер (МАМ)

Abstract: This article provides information on the principles of nursing activity and the concept of "Philosophy of Nursing". The emergence of medicine, the history and development of nursing work and Concepts of the nursing process are widely covered.

Key words: Nursing philosophy, nursing work, medicine, health, International Nurses Association (INA).

Xamshiralik ishi falsafasi jaxonga tibbiyot xamshirasi nuqtai nazaridan yondoshiladigan g'oyalar tizimidir. U xamshiraning faoliyati xamda uning shaxsiy va kasbiy maxoratga bo'lgan dunyoqarashlarini aks ettiradi. Albatta, ushbu falsafa negizida o'zining biologik, ruxiy, sotsial va boshqa qator talablari bilan bemor shaxsiyati yotadi. Uning asosiy tamoyili bemor xayoti va xukuqlariga xurmat bilan qarashdir. Hamshira xar qanday murakkab xarakterdagi shaxs bilan o'zaro muloqotda bo'lishi xamda unga tibbiy xizmat ko'rsatishga tayyor turishi lozim. Bu uning kasbiy maxorati ko'rsatkichlaridan biri xisoblanadi. U xar bir bemorning o'tmishi, bugungi kuni va ertangi kuniga, xayotiy qadryatlari, odatlari, dunyoqarashi va diniy etiqodiga nisbatan xurmat bilan qarash muxitini yaratadi.

Tibbiyot xamshirasining bemor bilan o'zaro munosabatlarining asosiy tarkibiy qismlaridan biri – uning axloqiy kodeksidir. U tibbiyot xamshirasi faoliyatini baxolaydi va xulqning asosiy tamoyillarini yoritadi, yani kasbining maqsadi, majburiyatlari va qadryatlarini aks ettiradi. Xamshira mazkur chegara doirasida axloqiy meyorlarga mos keluvchi qarorlarni qabul qilishi va jamiyat, xamkasblari xamda o'z kasbi bo'yicha yuklatilgan ajburiyatlarni bajarishi lozim.

Xar qanday kasb kabi tibbiyot xamshirasi ishi falsafasi xam doimo nisbatan bo'lgan fikri muntazam o'zgarib turgani sababli, tibbiyot xamshirasi kasbi to'g'risidagi fikrlar xam o'zgarib turadi. Hamshiralik ishi falsafasi nafaqat turli xududlar, milliy guruxlar, balki davolash profilaktika va tibbiy – o'quv maskanlarida xam bir – biridan farq qilishi mumkin.

Hamshiralik ishi falsafasida 4 ta asosiy tushuncha mavjud:

- 1. Hamshiralik ishi – sanat va fan;**
- 2. Bemorga shaxs sifatida qarash;**
- 3. Atrof- muxit;**
- 4. Salomatlik;**

O'z vaqtida F. Naytingeyl takidlaganidek hamshiralik ishi – parvarishlashga asoslangan eng qadimgi sanatlardan biri va bir vaqtning o'zida eng navqiron fandir. Hamshiralik ishi fan sifatida nafaqat tibbiy,

balki ruxiy , ijtimoiy , madaniy, tarixiy , xuquqiy va tarbiyaviy bilimlarga suyanadi. Kasbiy faoliyati jarayonida ularda malum konseptual yo‘nalish yuzaga kelib, uning asosida xamshiralik ishining keng qamrovli xususiyatlari to‘g‘iladi. Ushbu xususiyatlar hamshiralik ishi nazariy qismini yaratishda mustaxkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bazan salomatlik nimadan iborat ekanligini aniqlash qiyin, lekin u doimiy xarakatdagi jarayon ekanligini xisobga olish lozim. Tibbiyot xamshirasi yer yuzidagi eng insonparvar kasblardan biri xisoblanadi. U – xamdardlik , beg‘arazlik , sabr – toqat , sezgirlik , diqqat – etibor , ko‘ngilchanlik , mexr – muruvvat kabi ijobiy xislatlarni o‘zida mujassamlashtirgan kasb. Bular albatta, chuqur bilim va yuqori kasbiy maxorat bilan mustaxkamlanishi lozim.

Meditsina (**lot.medicina — davolayman**), tabobat , tibbiyot – insonlar sog‘lig‘ini saqlash va mustaxkamlash , umrni uzaytirish , kasalliklarning oldini olish , davolash xaqidagi bilimlar va shu soxadagi amaliy tadbirlar majmui. Zamonaviy tibbiyotning kelib chiqishi uzoq tarixiy davrlarni va turli dunyoqarashlarni o‘z ichiga oladi: turli kasalliklar, ularni davolash va oldini olish xaqidagi bilimlar asosi xalqimizning tajriba va kuzatishlari orqali malum bo‘lgan . Tabobat kurtaklari odam paydo bo‘lgan davrdan boshlab yuzaga kelgan.

“Meditsina faoliyati — **dastlabki odam bilan tengdosh**” – deb yozgan edi I.P. Pavlov. Insoniyat o‘z xayoti davomida tabiyatning turli salbiy tasirlarga uchragan va ana shu tasirlar natijasida turli kasalliklarga chalinganlar. Yashashuchun kurash jarayonida turli shikastlanishlarga duch kelingan. Tabiiyki inson bunday aziyatlarni bartaraf etish choralarni izlay boshlagan va ular orasidan kuzatuvchan va bilimlari ushbu masalani xalq etish yo‘llarini topganlar. Turli giyoxlar, kukunlar, malxamlardan foydalanib bemorlarni davolay boshlaganlar. Natijada asta — sekin odamlar orasidan davolash ishlari bilan shug‘ullanuvchi kishilar tanila boshlagan. Bunda davo choralari birday ko‘rsatilgan. Bu davr shifokorlik kasbining shakillanishida tibbiyot allomasi Buqrot (Gipokrat) ning (miloddan avvalgi 460-377- yil) xissasi nixoyatda katta. U ko‘pgina kasalliklarning tashqi belgilari, kasallikning kelib chiqishiga bemorning turmush tarzi, atrof – muxit va iqlimning tasirini tasvirlab bergan, u o‘zining mijoz va gavda tuzilishi turlari xaqidagi talimoti bilan bemorlarni davolash va unga tashxis qo‘yishda o‘ziga xos yondashishga asos soldi. Albatta o‘sha vaqtda davo ishlari ilmiy asosda bo‘lmagan, muolaja ayrim azolar va ularning fiziologik vazifasini aniq bilishga asoslanmay , orgpnizmdagi 4 xil xilt (shilliq , qon , sariq va safro) ning o‘zgarishiga qarab belgilangan. Odam tanasining tuzilishi va funksiyasini o‘rganishga oid dastlabki tadqiqotlar miloddan avvalgi 3- asrdayoq paydo bo‘lgan. Aleksandriyalik vrach Gerofil va Erazistratlar murdani yorib ko‘rishgan, xayvonlarda turli tajribalar o‘tkazishgan. Yuqoridagi yutuqlar natijasida tibbiyotda anchagina siljish yuzaga kela boshladi, lekin axoli orasida ko‘payib borayotgan kasalliklarni davolash jarayonida yana bir shaxsning yetishmayotganligi sezila boshladi. Bu davolovchining yaqin ko‘makdoshi, buyurilgan vazifalarni vaqtida bajaruvchi va bemor bilan bevosita muloqotda bo‘luvchi hamshira edi.

Hamshira paydo bo‘lishi bilan uning zimmasidagi vazifalar ko‘lami xam tobora kengayib bordi. U nafaqat buyirilgan vaziqalvni bajaruvchi, balki qabulga keluvchilar bilan muloqotda bo‘luvchi , bemorni parvarish qiluvchi – hamshiralik ishining amalga oshiruvchi kishiga aylanadi. Xozirgi kunda hamshiralik ishining qadimda qanday paydo bo‘lganligi va rivojlanganligi xaqida juda ko‘p tadqiqotlar olib borilmoqda. Odamlarni kasalliklarni oldini olish va salomatligini saqlash muammolari doimo qiziqtirib, o‘ylantirib kelgan. Ular o‘z kasalliklarini davolash yo‘llarini aniqlashga xarakat qilishgan. Shulardan kelib chiqqan xolda hamshiralik ishining paydo bo‘lishi va rivojlanishida tibbiy yordam ko‘rsatishning uch sistemasi katta axamiyatga ega. Birinchi sistema – yuqorida bayon etilgan qadimgi ananaviy (xalq tabobati) yordam ko‘rsatish sistemasi bo‘lib, bunda asosiy o‘rinni tabiblar va mutaqil davolovchilar egallashgan, ularning faoliyati davolashga qaratilgan. Yordam ko‘rsatishning ikkinchi sestemasi diniy qarashlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu yetim — yesir , beva –bechoralarni davolashni tashkil etishni o‘z ichiga olgan. Ana shu sistemada hamshiralik ishining ilk kurtaklari yuzaga kelgan va bunda bemorlar va kambag‘allarga birinchi navbatda yordam ko‘rsatilgan. Birinchi sestema xozirgi Yovropa meditsinasi sifatida tan olingan, ikkinchi sistema esa 1300-1450- yillargacha rivojlanib kelgan. Ikkinchi sistema faoliyati davom eta borib, uchunchi sistema — yani davolashga asoslangan va amaliy

tibbiyotga etibor kuchaygan sistemaga aylangan. Qo‘lga kiritilgan yangiliklar, ixtirolar yordam ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirib hamshiraning vrachlarni yordamchisi sifatidagi axamiyatini oshirdi. Qrim urushidan so‘ng Florens Naytingel o‘zining aniq va tartibli yozuvlari va kundaliklari, biografik malumotlarini chop etish bilan birga xamshiralar tayyorlashning birinchi tashkilotchisi bo‘ldi. Lekin hamshiralarni tayyorlash va o‘qitishda umumiy tibbiyot xodimlari va vrachlar xukmronlik qilib kelishgan. Bu esa hamshiraning vrachga va umumtibbiyot talablariga tobe bo‘lib qolishga sababchi bo‘lgan. Hamshiralar faqat kasalxonalarda ishlash uchungina kerak deb xisoblanar edi.

XIX asrning oxirlariga kelib hamshiralik ishiga qiziqishning ortishi 1899 – yilda Halqaro Hamshiralar (Kengashi) Assosiatsiyasi tashkil etilishiga olib keldi. 1900 – yilda Kengashning Nizomi qabul qilindi va uning birinchi prezidenti etib angilyalik hamshira Bezfard Fenvik saylandi. Ushbu tashkilot tashabbusi bilan 1971 – yildan boshlab 12- may (F. Naytingeyl tug‘ilgan kun) **“Hamshiralar kuni”** sifatida bayram qilib kelinadi. Ushbu kengashning faoliyat turlari – hamshiralik talimi , hamshiranin vazifalari, ish sharoiti va xamshiralarga bo‘lgan munosabat XHA(Xalqaro Hamshiralar Assosiatsiyasi)ning etikaviy kodeksini tasdiqlash, xamda uning ko‘magida xalqaro konfirensiyalar o‘tkazishdan iborat. Konferensiyalar 4 yilda 1 marta o‘tkazib turiladi.

Xozirgi kungacha ushbu kengash xamshiralik ishini takomillashtirish va xamshiralar ishida tub o‘zgarishlar yasashga xissa qo‘shib kelmoqda. Raxbarlik lavozimlarining xamshiralarga xam yuklanishi, tashkilotchilik ishlari bilan shug‘ullanish xam xamshiralik ishi mavqeini yanada oshirishga sabab bo‘lmoqda . Hamshiralik ishining nazariy va ilmiy – tadqiqot ishlari bo‘yicha yo‘nalishlari yaratilib, hamshiralar mustaqil ravishda o‘zlarining nazariy qarashlariga, o‘z faoliyatlari davomida uni rivojlantirish imkoniga ega bo‘lmoqdalar.

Erishilgan va kutilgan natijalarni bir – biri bilan taqqoslash xamshiradan chuqur fikirlash qobilyatini talab etadi. Maqsadlarga erishilgan, yani muammo xal qilingan xollarda, hamshira maxsus kartada monand yozuvlarni qayt etadi, imzo chekadi va sanani yozib qo‘yadi. Barcha bajarilgan muolajalar xamshiraning xujjatlarida aks etishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qodirxon Inomov “Hamshiralik ishi asoslari” Toshkent – 2007 yil.
2. A. Gadayev , M.X.Alimova , X.S. Salixodjayeva , L.X.Musajonova “Umumiy Amaliyot hamshiralari uchun amaliy qo‘nikmalar to‘plami” Toshkent -2011.
3. T.Yu. Umarova , I.A. Qayumova , M.Q. Ibragimova “Hamshiralik ishi ” Toshkent- 2003 yil .
4. K.U. Zakirova , D.U. Toxtamatova “Hamshiralik ishi asoslari” Toshkent – 2010 yil.
5. Медведев О.С. Международная конференция "Современные информационные технологии в медицине" // Медицинская визуализация. - 1997. - 3. - С. 59-61
6. М .А .Fozilbekova, N.A.Nurmatova. Hamshiralik ishi nazariyasi asoslari. - « 0 ‘qiluvchi», 2002.
7. Q .S.Inamov. Hamshiralik ishi asoslari. - T., 2007
8. С.А.Мушина, И.И.Тарновская. Атлас по манипуляционной техники сестринского ухода. - АНМИ , 1995
9. Мамедова, Г. Б. Применение компьютерных технологий в работе медсестер / Г. Б. Мамедова, М. Б. Миркаримова, М. А. Мирзаева, Г. А. Таджикибаева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2014. — № 18 (77). — С. 146-149. — URL: <https://moluch.ru/archive/77/13155/>
10. Гасников В.К. Основы научного управления информатизации в здравоохранении: учеб. пособие / В.К. Гасников; под ред. Н.В. Савельева, В.Ф. Мартыненко. - Ижевск, 1997